

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston davlat  
xoreografiya  
akademiyasi rektori

  
SH. Toxtasimov

“ ”

2026-y

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston  
Respublikasi Madaniyat  
vazirining birinchi  
o‘rinbosari

  
A. Tadjixanov

“ ”

2026-y

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi

“ ”

2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

60211000 – San’atshunoslik (xoreografiya bo‘yicha)

*(kunduzgi) ta‘lim yo‘nalishi uchun*

Toshkent – 2026

Mazkur dastur va baholash mezonlari O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2026-yil 22-maydagi 10-sonli yig‘ilish bayoni).

**Tuzuvchilar:**

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası dotsenti,  
San’atshunoslik fanlari  
nomzodi, dotsent Tashkenbayev P.I

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası  
mudiri, dotsent Umarov SH.V.

**Taqrizchilar:**

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası  
professori v.v.b, filologiya fanlari doktori  
Hamrayeva H.H.

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası  
dotsent Alimdjanova N.A

## ABITURIYENT BILIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### 1. San‘atshunoslik (xoreografiya bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishida tanlangan mavzularda yozma shaklda abituriyentlar bilim darajasini aniqlash

Abituriyentlarning san‘atshunoslikka oid mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati baholanadi. Abituriyentlar uchun tanlangan mavzular san‘at texnikumlari, ixtisoslashtirilgan san‘at maktab-internatlari o‘quv rejasidan o‘rin olgan sohaga oid predmetlar mavzulariga muvofiq shakllantiriladi. Abituriyentlarga yozma ish uchun (60 daqiqa) vaqt beriladi. Abituriyentlar tomonidan yozilgan yozma ish 63 (oltmish uch) ballik tizimda baholanadi.

#### Abituriyentlar yozma ishi uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

**Maksimal ball – 63 (oltmish uch) ball.**

<b>50-63 ball</b>	Yozma ishda so‘z boyligi, gap qurilishi va ifoda uslubi adabiy til talablariga mos bo‘lib, mavzu mazmuniga ijodiy yondashilgan, xulosalar to‘g‘ri chiqarilgan, savodxonlikda 3 ta imloviy va 6 ta ishoraga oid xatolikka yo‘l qo‘yilgan, umumiy xatolar 9 tadan oshmagan deb topilganda.
<b>35-49 ball</b>	Yozma ishda mavzu batafsil yoritilgan, adabiy til talablariga mos yozilgan, ammo fikrni bayon qilishda ijodiy yondashilmagan savodxonlikda 6 ta imlo, 9 ta ishoraga oid va 3 ta uslubiy xatolikka yo‘l qo‘yilgan, umumiy xatolar 18 tadan oshmagan deb topilganda.
<b>21-34 ball</b>	Yozma ishda mavzu izchil bayon etilmagan, adabiy til talablariga mos yozilgan, ammo fikr mantiqiy ketma - ketlikda bayon qilinmagan, savodxonlikda 9 ta imlo, 12 ta ishoraga oid va 6 ta uslubiy xatolikka yo‘l qo‘yilgan, umumiy xatolar 28 tadan oshmagan deb topilganda.
<b>1-20 ball</b>	Yozma ishda mavzu to‘liq va mantiqiy ketma-ketlikda yoritilmagan, savodxonlikda 12 ta imlo, 15 ta ishoraga oid va 8 ta uslubiy xatolikka yo‘l qo‘yilgan umumiy xatolar 35 tadan oshmagan deb topilganda.

## 2. Suhbat (kollokvium)

Suhbat (kollokvium) abituriyentlarning xoreografiya san'ati, teatr, musiqa, kino, tasviriy san'at va boshqa san'at turlari, san'atshunoslik sohalari bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Shuningdek, abituriyentlar jahon hamda O'zbekiston madaniyati va san'ati yangiliklaridan (asosan xoreografiya bo'yicha) xabardor bo'lishlari va ularni tahlil etishlari, tanqidiy yoritish qobiliyatlariga ega bo'lishlari lozim.

### Maksimal ball – 93 (to'qson uch) ball

<b>71-93 ball</b>	Yetarli darajada dunyoqarash, estetik va badiiy bilimlarga ega bo'lish. Nazariy materiallarni tizim uslublarini bilishi. Badiiy amaliyot va uning jarayonlari hamda tarixiy asoslarni to'g'ri tahlil qila olishi.
<b>41-70 ball</b>	Umumiy, estetik va badiiy bilimlarning yaxshi bilishi. Nazariy materiallar asoslarini yaxshi bilishi. Badiiy jarayonlar rivojlanishi haqida yaxshi darajada ma'lumotga egaligi.
<b>21-40 ball</b>	Badiiy voqe'likni va badiiy jarayonlarni rivojlantirish tendensiyalarini yetarli ravishda tushunmasligi. Badiiy amaliyotni tahlil qila olishi va baholashi qoniqarli emas. Kasbiy yo'nalishda fikr va mulohazada kamchiliklar borligi.
<b>1-20 ball</b>	Badiiy voqe'likni va badiiy jarayonlarni rivojlantirish tendensiyalarini tushunmasligi. Badiiy amaliyotni tahlil qila olishi va baholashi qoniqarli emas. Kasbiy yo'nalishda fikr va mulohazalarni yo'qligi.

### 3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyentlar bilimini baholash

1. Yozma ish bo'yicha maksimal - 63 (oltmish uch) ball.
2. Suhbat (kollokvium) bo'yicha maksimal - 93 (to'qson uch) ball.

*Jami maksimal - 156 (bir yuz ellik olti) ball.*

#### **4. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar belgilangan jadval asosida dastlab mutaxassislik bo'yicha yozma ish topshiradilar. Abituriyentlarga yozma ish uchun (60 daqiqa) vaqt beriladi. Abituriyentlar tomonidan yozilgan yozma ishi 63 (oltmish uch) ballik tizimda baholanadi.

Fan bo'yicha komissiya tomonidan tuzilgan mavzular abituriyentlar e'tiboriga havola etilib shu mavzular asosida yozma ish amalga oshiriladi hamda abituriyentlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga baho beriladi.

Abituriyentlarning yozma shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Abituriyentlar yozma ish topshirganlaridan so'ng, ijodiy imtihonning ikkinchi qismi hisoblangan suhbat (kollovium)da ishtirok etadilar.

Abituriyentlar bilan suhbat davomida ularning xoreografiya san'ati, teatr, musiqa, kino, tasviriy san'at va boshqa san'at turlari bo'yicha tayyorgarlik darajasi, umumiy dunyoqarashi, tahliliy va ijodiy fikrlash darajasi aniqlanadi. Shuningdek, abituriyentlar jahon hamda O'zbekiston madaniyati va san'ati yangiliklaridan (asosan xoreografiya bo'yicha) xabardor bo'lishlari va ularni tahlil etishlari, tanqidiy yoritish qobiliyatlariga ega bo'lishlari lozim.

Imtihon komissiyasi 3 kishidan iborat shaklda tashkil etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan binoga kirishda abituriyent kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo'lsa, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini guruhdan tashqariga chiqarsa, mazkur holatlarda abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiya raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuziladi va kasbiy (ijodiy) imtihondan chetlashtiriladi.

## **5. Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha akademiya apellyatsiya komissiyasiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Apellyatsiya shikoyatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarorida belgilangan tartibga binoan apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Abituriyent tomonidan yozilgan murojaat, uning o'ziga tegishli to'plangan ballar bo'yicha norozilik bo'lgan holatda ariza qabul qilinadi. Boshqa abituriyentlarga tegishli bo'lgan masalalar yuzasidan yozilgan shikoyat - arizalari qabul qilinmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shokirov U., Ashrafiy F., Shokirova I. O‘zbekiston madaniyati namoyondalari. (mo‘jaz ijodiy chizgilar). –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
2. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. (Qadimiy zamonlardan 2000 yilga qadar o‘zbek an’anaviy raqs san’ati). – T. Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi. 2001.
3. Насибулина Л. “История узбекского хореографического искусства”– Т.: Navruz, 2019.
4. Sayfullayeva D., Kazakbayeva Z. O‘zbek raqs san’ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari . –T.: Voris –Nashriyoti, 2006.
5. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Т.: Фан, 1968.
6. Раҳмонов М. Ўзбек театри (қадимги замонлардан XVIII асргача). – Т: Фан, 1975.